

## ZAMONAVIY KASHTACHILIKDA YANGICHA YONDASHUV

**Benaliyeva Aziza Imdarovna, Mamasoliyeva Shohista Lutfullayevna**  
Samarqand davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kashtachilik san'ati, kashtachilik tarixi, kashtachilikdagi imkoniyatlar, xom ashyo va asbob uskunalar, zamonaviy kashtachilik turi bo'lgan "punch needle" texnikasi haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** kashtachilik, naqsh, "punch needle" texnikasi.

Kashtachilik qadim davrlardan taraqqiy etgan bo'lib, O'rta Osiyoda xalq ijodining eng ommaviy shakllaridan biri bo'lib kelgan. Tadqiqotchilar "O'rta Osiyo qadimgi vaqtlarda ham o'zining gul solingan (kashta tikilgan) matolari bilan mashhur bo'lgan", – deb qayd qilganlar [1]. Kashtachilik haqidagi ma'lumotlar shuningdek zardushtiylilik dinining muqaddas kitobi – Avestoda (Xorazm, eramizdan avvalgi 7-asr), rimlik tarixchilar asarlarida, xitoy manbalarida, hamda arab tarixchilari Istaxriy, Ibn Havqal va Narshaxiylarning asarlarida O'rta Osiyoning turli shaharlarida, dehqonchilik rivojlangan qadimgi qishloqlarida to'qilgan, gul solingan, turli bezakli kiyimlar (kashtachilik) haqida ma'lumotlar keltirilgan [2]. O'zbekistonning qadimiy shaharlarini tadqiq qilgan qadimshunos-arxeologlar topgan ashyoviy dalillar ham, aynan mana shu ma'lumotlarni isbotlab bermoqda [3]. Har bir davrda iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa omillar ta'sirida kiyim bezatish texnikalari taraqqiy etib borgan. Shunday ekan, XXI asrga kelib, hunarmanshilik sohasida muhim o'zgarishlar va vaqt omili sifatida ko'p mehnat talab qilinadigan bezatish texnikalari o'rniga, qisqa fursatda tayyor bo'ladigan qulay usullar vujudga keldi. Fikrimingizning isboti sifatida "Punch needle" texnikasini misol keltirsak bo'ladi. Bu texnika kashtachilikning zamonaviy usuli bo'lib, insonlarning qiziqarli va foydali mashg'uloti va kashtachilikdagi samarador texnika turiga aylanib ulgurdi. Bu texnikaning o'ziga xosligi 3D effektga ega ekanligidadir. Bunday effektga esa maxsus igna yordamida erishiladi [4].

Kashta tikishda badiiy mazmun bilan bog'liq yana bir o'ziga xoslik shundaki, bu to'g'ri rang tanlashdan iborat. Kashta tikish ranglar bilan chambarchas bog'liq. Iplarni tanlashda ranglarning bir-biriga qanday ta'sir etishini bilish zarur. Har qanday rang o'zining tusi, och va to'qligi bilan xarakterlanadi [5].

"Punch needle" texnikasini deyarli barcha tikuvchilik buyumlarida qo'llash mumkin bo'lgan oson, noyob va bejirim texnikadir. Bu texnika yordamida sochiq va dasturxonlar, hamyonlar, yostiq jildlari, devorga osiladigan dekorativ buyumlar, sumkalar, aksessuarlar hamda ayollar va bolalar kiyimlarini bezash imkoniyati mavjud.


Mazkur ishda "Punch needle" texnikasini yordamida yostiq jildini bezash texnologiyasini ko'rib chiqilgan. Naqsh sifatida esa o'zbek milliy naqshlaridan foydalanilgan.

"Punch needle" texnikasi yordamida yostiq jildi tikish texnologiyasi quyidagicha:

1. Dastlab kerak bo'lgan xom ashyo va asbob-uskunalar tayyorlab olinadi. Buning uchun asosiy va astarlik mato, kashta iplari, maxsus igna, qalam, qaychi, santimetrli tasma, chambarak, yelim qotirma sintepon kerak bo'ladi (1-rasm).
2. Navbatdagi bosqichda 50x50 sm o'lchamdagi yostiq jildi bichib olinadi. Jildning avrasi paxmoq matodan, astari esa shoyi matodan bichib olinadi (2-rasm).




1-rasm.



2-rasm.

3. Avralik matoning teskari tomoniga naqsh eskizi chiziladi. Bunda milliy matomiz bo'lgan atlas matosining naqshidan foydalanish mumkin (3-rasm).




3-rasm.




4. Avralik mato chambarakka tortiladi (4-rasm).

5. Keyin esa tanlagan iplar yordamida naqshga to'ldirib ishlov beriladi. Bu texnikada kashta naqshning o'rtasidan boshlab tikiladi. Bir turdagi rangdan ikkinchisiga o'tganda, naqshning konturini hosil qiladigan qator iplarining uzunligi qaychi yordanida biroz qisqartiriladi. Bu operatsiya bir turdagi rangdan boshqasiga o'tishda ranglarningbir-biridan ajralib turushini ta'minlaydi (5-rasm).



4-rasm



5-rasm

6. Shu tariqa naqshning har bir elementi to'ldirib tikib chiqiladi (6-rasm).

7. Endi esa tayyor bo'lgan naqshning iplari sitilib ketmasligi uchun yelimlanadi. Yelim sifatida PVA yelimi, yoki tikuvchilikda qo'llaniladigan yelim qotirmali materiallardan foydalanish mumkin. Yelim qotirmali material naqshning o'lchamlariga moslab kesib olinadi va matoning orqa tomonidan, naqshning barcha qismini yopadigan qilib, dazmol yordamida yopishtirib chiqiladi (7-rasm).



6-rasm



7-rasm

11. navbatdagi bosqichda yostiq avrasi va astari bir-biriga 0,5 sm li ag'darma chok yordamida tikiladi, bunda 5-6 sm joy tikmasdan qoldiriladi va yostiq shu joydan o'ngiga ag'dariladi (8-rasm).

12. Yostiq atrofi bo'ylab 1,5 sm kenglikda bostirma chok yuritiladi. Bu operatsiya jilddan ramka hosil qilib, uning yanada ko'rkam chiqishini ta'minlaydi (9-rasm).



8-rasm



9-rasm

13. Tayyor bo'lgan yostiq ichi sintepon bilan to'ldiriladi va 5-6 sm tikmasdan ochiq qoldirilgan joy yolg'on qaviq yordamida tikib qo'yiladi.

Shu bilan yostiq tayyor holga keladi (10-rasm).



10-rasm

### Xulosa

Kashtachilik san'ati O'rta Osiyo madaniyatining qadimiy va muhim qismi sifatida rivojlanib, xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligida o'ziga xos o'rin egallaydi. O'zbek xalqining kashtachilik an'analari qadimdan ma'lum bo'lib, Avesto, tarixiy manbalar va arab, xitoy tarixchilarining asarlarida uning madaniy va iqtisodiy ahamiyati haqida ma'lumotlar mavjud. Kashtachilik davrlar o'tishi bilan rivojlanib, zamonaviy texnikalar, "Punch Needle" texnikasi kabi samarali usullarni joriy etdi. Kashtachilik texnikalari bugungi kunda yangi innovatsion metodlar va samarali natija olish imkoniyatlarini taqdim etadi. Shu bilan birga, o'zbek milliy kashtachiligi an'analarini zamonaviy texnikalar bilab uyg'unlashtirish imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ramazanov I.A. va b. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati. // Research and education. Vol. 2, Issue 1, 2023. 90-94-betlar.
2. [www.e-tarix.uz](http://www.e-tarix.uz)

3. Mamasoliyeva Sh.L. Xalq hunarmandchiligi. SamDU nashriyoti, 2022 y. 200 b.
4. Silke R. *Creative Punch Needle: Techniques, Projects, and Inspiration for Needlework*. Rockport Publishers. 2020.
5. Sohibov, R. Ranglarning asosiy xususiyatlari. // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 2022. 234-238-betlar.